



### XIII. O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI



2024- yil yanvar-iyun oylarida Jizzax viloyati bo'yicha  
o'rtacha oylik nominal ish haqi miqdori  
(dastlabki ma'lumot)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko'rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2024- yil yanvar-iyun oylarida Jizzax viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **3 829,4 ming so'mni** (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 15,0 foizga o'sdi.

**Tarmoqlar kesimida o'rtacha oylik ish haqi**  
(2024- yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik  
subyektlaridan tashqari)

#### SANOAT SOHASIDA



5 055,7  
ming so'm

Aprel

May

4 669,6  
ming so'm

4 999,8  
ming so'm

Iyun

Yanvar-iyun

4 579,2  
ming so'm

#### QURILISH SOHASIDA



4 908,1  
ming so'm

Aprel

May

4 797,2  
ming so'm



4 611,2  
ming so'm

Iyun


Yanvar-iyun

4 506,2  
ming so'm


## SAVDO SOHASIDA




## TASHISH VA SAQLASH SOHASIDA



## AXBOROT VA ALOQA SOHASIDA



## MOLIYAVIY VA SUG'URTA FAOLIYATI SOHASIDA



## TA'LIM SOHASIDA



3 168,3  
ming so'm

Aprel

May

3 270,8  
ming so'm

3 304,8  
ming so'm

Iyun

Yanvar-iyun

3 221,8  
ming so'm

## SOG'LIQNI SAQLASH VA IJTIMOY XIZMATLAR SOHASIDA



3 037,5  
ming so'm

Aprel

May

3 039,2  
ming so'm

3 243,9  
ming so'm

Iyun

Yanvar-iyun

3 091,2  
ming so'm

## SAN'AT, KO'NGIL OCHISH VA DAM OLISH SOHASIDA



3 554,9  
ming so'm

Aprel

May

3 334,6  
ming so'm

3 264,1  
ming so'm

Iyun

Yanvar-iyun

3 291,0  
ming so'm

## BOSHQA FAOLIYAT TURLARI SOHASIDA



4 857,8  
ming so'm

Aprel

May

4 503,5  
ming so'm

5 041,8  
ming so'm


Iyun

Yanvar-iyun

4 650,8  
ming so'm



### Sohalar kesimida o'rtacha oylik ish haqi miqdori va o'sish sur'ati (2024 yil yanvar-iyun)



■ Ish haqi miqdori ming so'm ▲ O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati % da

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'ati Savdo sohasida (2,1 marta), Tashish va saqlash faoliyati (54,9 %), Sanoat sohasida (24,4 %), san'at, ko'ngil ochish va dam olish faoliyati (15,4 %) va Moliyaviy va sug'urta faoliyati sohasida (13,7 %) tashkil etib boshqa faoliyat turlariga nisbatan yuqori bo'lmoqda.



**Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxona va tashkilot  
xodimlar soni, ish haqi fondi hamda o'rtacha oylik ish haqi**  
(2024- yil yanvar-iyun; qishloq xo'jaligi va kichik  
tadbirkorlik subektlaridan tashqari)

	<i>Xodimlar soni, kishi:</i>	<i>Ish haqi fondi, mln.so'm:</i>	<i>O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm:</i>
<b>Jizzax viloyati bo'yicha – jami</b>	<b>112 970</b>	<b>2 561 144,6</b>	<b>3 829,4</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Sanoat	15 660	430 264,3	4 579,2
Qurilish	1 437	38 852,1	4 506,2
Savdo	837	29 622,8	5 898,6
Tashish va saqlash	663	29 169,8	7 332,8
Yashash va ovqatlanish	128	2 237,7	2 913,7
Axborot va aloqa	494	24 502,4	8 266,7
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	1 876	123 726,5	10 992,1
Ta'lim	53 541	1 035 000,4	3 221,8
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	22 906	424 836,8	3 091,2
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	930	18 363,8	3 291,0
Boshqa faoliyat turlari	14 498	404 568,0	4 650,8

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Moliya va sug'urta faoliyati 10 992,1 ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,9 marta), Axborot va aloqa faoliyati 8 266,7 ming so'mni (2,2 marta) hamda Tashish va saqlash sohasida 7 332,8 ming so'mni (1,9 marta) tashkil etib, boshqa faoliyat turlariga nisbatan yuqori bo'ldi.





**Sanoat sohasi** bo'yicha bir qator shahar va tumanlar o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi. Viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar G'allaorol – 177,4 % va Zafarobod – 173,5 %, tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Shu bilan birga, viloyatning ba'zi tumanlarida ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat darajasidan past ekanligi kuzatildi.

Ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Forish – 36,2 % va Do'stlik – 46,5 % tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



**Qurilish sohasidagi** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Zomin tumani – 112,5 % va Jizzax shahri – 112,0 % da kuzatildi.

Shu bilan bir qatorda, viloyatning ba'zi tumanlari qurilish sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyat darajasidan past bo'ldi.

Qurilish sohasida viloyat ko'rsatkichidan sezilarli darajada past o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi Baxmal (76,2 %) va G'allaorol (77,4 %) tumanlarida kuzatildi.



**Savdo sohasidagi** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqini ko'radigan bo'lsak, eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida – 109,4% viloyat darajasidan yuqori ko'rsatkichlar kuzatildi.

Shu bilan bir qatorda, viloyatning ba'zi tumanlari qurilish sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyat darajasidan past bo'ldi.

Savdo sohasida viloyat ko'rsatkichidan sezilarli darajada past o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi, Baxmal – 28,0 % tumanida kuzatildi.



**Ta'lim** sohasi bo'yicha qator shahar va tumanlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan sezilarli yuqori ko'rsatkichlar Jizzax shahri – 137,4 %, Zarbdor – 113,1 % va Baxmal -103,9 % tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Shu bilan birga, ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining ba'zi tumanlarda viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan past ekanligi kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan sezilarli past ko'rsatkichlar Yangiobod – 77,8 %, Zafarobod – 79,8 % hamda G'allaorol – 80,2 % tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan.



**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish** sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari Arnasoy – 127,2 %, Zomin – 110,9 %, Paxtakor – 107,1 % tumanlari va Jizzax shahri –104,9 % hissasiga to'g'ri keldi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ba'zi tumanlarda viloyat o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Xususan, ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Forish – 85,1 %, Zarbdor – 85,9 %, Do'stlik – 88,8 %, tumanlarida kuzatildi



**Bank, sug'urta va vositachilik** faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan ko'rib chiqilganda eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida – 100,1 % qayd etildi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatning ba'zi tumanlarida viloyat o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Ish haqining sezilarli past ko'rsatkichlari Yangiobod – 94,8 % tumanida kuzatildi.






### Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2024- yil yanvar-iyun, ming so'mda)

<i>O'rtacha oylik ish</i>	<i>2023- yil yanvar-iyun</i>	<i>2024- yil yanvar-iyun</i>	<i>O'sish sur'ati, %.</i>
<b>Jizzax viloyatida</b>	<b>3 329,6</b>	<b>3 829,4</b>	<b>115,0</b>
Jizzax shahri	4 237,1	4 852,6	114,5
tumanlar:			
Arnasoy	2 888,6	3 247,4	112,4
Baxmal	2 996,7	3 286,6	109,7
G'allaorol	2 870,5	3 805,7	132,6
Sharof Rashidov	2 653,5	2 988,0	112,6
Do'stlik	2 618,4	2 908,8	111,1
Zomin	2 783,8	3 177,6	114,1
Zarbdor	3 156,9	3 593,7	113,8
Zafarobod	3 693,3	4 161,8	112,7
Mirzacho'l	2 712,4	3 059,0	112,8
Paxtakor	2 980,4	3 399,1	114,0
Forish	2 513,9	2 735,1	108,8
Yangiobod	2 503,2	2 879,7	115,0

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini shahar va tumanlar bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Jizzax shahrida 4 852,6 ming so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan (114,5 %), Zafarobod tumanida 4 161,8 ming so'mni (112,7 %), G'allaorol tumanida 3 805,7 ming so'm (132,6 %), Zarbdor tumanida 3 593,7 ming so'mni (113,8 %) va Paxtakor tumanida 3 399,1 ming so'm (114,0 %) ni tashkil etdi.

### Hududlar bo'yicha o'rtacha ish haqi miqdorining viloyatdagi o'rtacha ish haqiga nisbatan o'sishi

(2024- yil yanvar-iyun oylarida viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini hududlar bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Jizzax shahrida viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 126,7 % va G'allaorol tumanida 108,7 % ni tashkil qilgan bo'lsa, Forish tumanida 71,4 % va Yangiobod tumanida 75,2 % ni tashkil etib, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan kam miqdorga ega bo'ldi.

**Ma'lumot uchun:** O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida mehnatga haq to'lash eng kam miqdori (2023 yil dekabr oyidan 1 050,0 ming so'mni tashkil etgan) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.



**JIZZAX VILOYATINING  
STATISTIK AXBOROTNOMASI  
2024- yil YANVAR-IYUN**

*Nashrga mas'ul:  
Statistika faoliyatini tashkil etish  
va yig'ma axborot-tahliliy ishlar bo'limi*

**tel.: 0(372) 221-53-51**

**Buyurtma raqami №      24.07.2024- yil      Tiraj 15 nusxa**

**Jizzax viloyati statistika boshqarmasi  
Jizzax shahri, To'qimachilar ko'chasi 7**

Rasmiy veb-sayt: [www.jizzaxstat.uz](http://www.jizzaxstat.uz)  
elektron pochta manzili: [info@jizzaxstat.uz](mailto:info@jizzaxstat.uz)  
elektron himoyalangan pochta manzili: [jiz.stat@exat.uz](mailto:jiz.stat@exat.uz)